



## O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI SOLIQ NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

**Quyliyev Ulug'bek**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0004-4877-4328

[kuyliyev11@rambler.ru](mailto:kuyliyev11@rambler.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali soliq nazoratini takomillashtirish masalalari bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlarning fikrlari o'rganilgan. Shuningdek mavzuga doir olib borilgan tadqiqotlar natijasi bo'yicha O'zbekiston soliq tizimida qo'llaniladigan axborot texnologiyalarni takomillashtirishga oid xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** soliqlar, mexanizm, soliq tizimi, soliq ma'muriyatchiligi, soliq nazorati, axborot tizimi, axborot texnologiyalari, "soliq hamkor".

## ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ НАЛОГОВОГО КОНТРОЛЯ В УЗБЕКИСТАНЕ ПОСРЕДСТВОМ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

**Куйлиев Улугбек**

Ташкентский государственный экономический университет

**Аннотация.** В статье рассматриваются взгляды отечественных и зарубежных учёных на проблему совершенствования налогового контроля в Узбекистане посредством применения цифровых технологий. По результатам исследований по данной теме разработаны выводы и предложения по совершенствованию информационных технологий, используемых в налоговой системе Узбекистана.

**Ключевые слова:** налоги, механизм, налоговая система, налоговое администрирование, налоговый контроль, информационная система, информационные технологии, "налоговый партнер".

## ISSUES OF IMPROVING TAX CONTROL IN UZBEKISTAN THROUGH THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES

**Kuyliyev Ulugbek**

Tashkent State University of Economics

**Abstract.** This article examines the views of local and foreign scholars on the issue of improving tax control in Uzbekistan through the use of digital technologies. Based on the results of their research on the topic, conclusions and proposals have been developed for improving information technologies used in the tax system of Uzbekistan.

**Keywords:** taxes, mechanism, tax system, tax administration, tax control, information system, information technology, "tax partner".

### Kirish.

O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo'nalishlarida "soliq qonunchiligini soddalashtirish, soliq munosabatlari sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlardagi ziddiyatlar va to'qnashuvlarni bartaraf etish, halol soliq to'lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirish" respublika soliq tizimini isloh qilishning muhim vazifalaridan biri sifatida belgilandi (Farmon, 2018).

Raqamli iqtisodiyot sharoitda soliq nazorati soliq to'lovchilar tomonidan soliq majburiyatlarining bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish va taqqoslash, qo'shimcha soliqlar, jarimalar va penyalari shaklida byudjetga qo'shimcha to'lovlarni undirish imkonini beruvchi hamda bu orqali soliq qonunchiligi buzilishining oldini olish yoki minimallashtirishni ta'minlaydigan turli raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish va qo'llashga asoslanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev (2023) mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan uchrashuvdagi nutqida "biz tadbirkorlarga soliq yukini ko'paytirish emas, balki ularni qo'llab-quvvatlash orqali soliq bazasini kengaytirish hisobidan byudjetga tushumlarni oshirish yo'lidan boryapmiz. O'tkazilgan so'rovlarda 62 foiz tadbirkorlarimiz soliq sohasidagi islohotlarimizni ijobiy baholagan" – deya ta'kidlaydi.

Jahonning aksariyat davlatlarida davlat byudjetiga belgilangan soliq tushumlarining bir maromda kelib tushishini ta'minlash, soliq qarzdorligini muvaffaqiyatli undirish mexanizmiga asoslangan soliq nazoratini samarali tashkil etishga ustuvorlik berib kelinmoqda.

Bevosita soliqlarning va soliq nazoratining asosiy yo'nalishlari bu korxonalarning foyda solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hamda aylanmadan olinadigan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish, faoliyatiga asoslangan soliq tekshiruvlarini tashkil etishning turli xil zamonaviy usullarini joriy etishga qaratilmoqdaki, bu jarayon bilan ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada chuqurlashtirishga ehtiyojlar ortib bormoqda.

Soliq mexanizmining asosiy elementlaridan biri – bu soliq nazorati. Soliq kodeksida (2025) «soliq nazoratining soliq tekshiruvlari va soliq monitoring» tartibida amalga oshirilish belgilangan. Soliq kodeksining 137-moddasida soliq tekshiruvlari quyidagicha e'tirof etilgan. «Soliq tekshiruvlari - soliq to'lovchilar, yig'implarni to'lovchilar va soliq agentlari tomonidan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish maqsadida o'tkaziladi.

### Adabiyotlar sharhi.

Mavzuga doir xorijiy va mahalliy olimlarning fikrlari o'rganilgan bo'lib, bunda olimlarning soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish haqidagi qarashlari xilma-xil bo'lishi mumkin va ularning tajribasi, tadqiqotlari va har bir alohida mamlakat imkoniyatlariga bog'liq.

Xususan, Kofler, Kashirinalar (2017) fikricha soliq nazoratini soliq tizimi faoliyatining muhim sharti soliq tekshiruvlari orqali amalga oshiriladigan samarali mexanizm - deb hisoblaydi. Ushbu olimning yondoshuvida soliq tekshiruvi soliq organining soliqlar va byudjetga boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblanishi, o'z vaqtida va to'liq to'lanishi (o'tkazilishi) ustidan nazorat harakati, bu jarayonda soliq nazorati natijasida olingan haqiqiy ma'lumotlar soliq organlariga taqdim etilgan soliq deklaratsiyasi ma'lumotlari bilan taqqoslanadigan iqtisodiy mexanizmdir - deya ta'kidlanadi.

Sadchikov (2010) fikriga ko'ra "soliq tekshiruvi soliq nazoratining asosiy shakli bo'lib, soliqlar va yig'implar to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish bo'yicha vakolatli organlarning protsessual harakatlari majmuidan iborat va u tekshirilayotgan shaxslarning hisobot ma'lumotlarini, soliq organlarining qarorlarini soliq to'lovchilar, yig'implar to'lovchilar va soliq agentlarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatining haqiqiy holati bilan taqqoslash yo'li bilan amalga oshiriladi" – deb hisoblaydi.

Alan Grinspenning (2010) "Axborot texnologiyalarining iqtisodiyotning barcha jabhalarida chuqur kirib borishi zamonaviy iqtisodiyotni avvalgilardan keskin farq qiladigan

holatga olib chiqadi va iqtisodiyot fanida yangi davrni boshlab beradi”, -deb bildirgan fikrini ta’kidlash o’rinli. Bu esa axborot-kommunikatsiya xizmatlaridan foydalanish jamiyatda iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi va unga mos ravishda ilmiy-texnikaviy taraqqiyotiga ham olib kelishi hozirgi kunda o’z tasdig’ini topmoqda.

Aplinning (2016) fikricha soliq ma’muriyatchiligiga nafaqat zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarini joriy etish, balki bu bilan parallel ravishda eng zamonaviy dasturiy injiniring mahsulotlarini ham tatbiq etish juda muhim masalalardan biri, - deb hisoblaydi.

Giyasovning (2020) fikricha, yangi texnologiyalarni joriy qilinishi xizmat ko’rsatish vaqtini qisqartirish, elektron soliq xizmatlarini rivojlantirish, xizmat ko’rsatishning hududiy tamoyilga o’tish, soliq to’lovchilarning vaqtini tejash kabi imkoniyatlarni beradi. Ma’lumotlarni qayta ishlash markazlaridagi hisoblash resurslari va saqlash vositalarini birlashtirish soliq ma’muriyatchiligi sifati va shaffofligini oshiradi.

### Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotimiz metodologiyasi bo’lib, O’zbekiston soliq tizimida qo’llaniladigan axborot texnologiyalar mexanizmining nazariy-huquqiy asoslari metodologiyasining iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi. O’zbekiston soliq tizimida qo’llaniladigan axborot texnologiyalar mexanizmining amaldagi holati va metodologiyasining nazariy-huquqiy asoslari umumlashtirildi. Tadqiqot jarayonida amaliy materiallarni taqqoslash va guruhlash kabi usullardan foydalanilib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Amalga oshirilgan islohotlar natijasida soliq nazoratining axborot ta’minotini yaxshilash bo’yicha sohada elektron texnologiyalarni joriy etish va soliq organlarida soliq to’lovchilar faoliyatini tahlil qilish faoliyati yaxshilandi. Soliq nazorati jarayonlarini avtomatlashtirish joriy vaziyatni intellektual tahlil qilish, soliq to’lovchilar faoliyati monitoringi, soliq organlarining yagona integratsiyalashtirilgan axborot resurs bazasidan zarur ma’lumotlarni olish imkonini berdi. Soliq to’lovchilar to’g’risidagi axborotni har tomonlama tahlil qilish soliq qonunchiligi buzilishlarini aniqlash darajasini oshirish va bevosita soliq tushumlarining o’sish zaxiralarini aniqlash uchun sharoit yaratdi.

1-jadval ma’lumotlaridan ko’rinadiki, yildan yilga soliq to’lovchilar faoliyatini masofaviy nazorati samaradorligi o’sib borgan. 2017-yilda har bir kameral nazorat tekshiruvining natijadorligi 0,004 mlrd so’mni tashkil etgan bo’lsa, 2018-2019-yillarda ushbu ko’rsatkich 0,006 mlrd so’m, 2020-yilda 0,107 mlrd so’m va 2021-yilda 0,163 mlrd so’m, 2022-yilda esa 0,349 mlrd so’mni tashkil qilgan.

1-jadval

#### Davlat soliq xizmati organlari tomonidan 2017-2024-yillarda o’tkazilgan kameral nazorat tadbirlari va ular natijalari tahlili

| T/r | Yillar | Kameral soliq tekshiruvlari va tekshiruvdan oldingi tahlillar soni, dona | Byudjetga hisoblangan qo’shimcha soliqlar, mlrd. so’m | Undirilgan mablag’lar, mlrd. so’m | Qo’shimcha hisoblangan soliqlarni undirish darajasi, % |
|-----|--------|--------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------|-----------------------------------|--------------------------------------------------------|
| 1.  | 2017   | 173262                                                                   | 763,8                                                 | 701,9                             | 91,9                                                   |
| 2.  | 2018   | 166013                                                                   | 1071,6                                                | 1034,4                            | 96,5                                                   |
| 3.  | 2019   | 125522                                                                   | 756,3                                                 | 728,3                             | 96,3                                                   |
| 4.  | 2020   | 89491                                                                    | 9604,4                                                | 9232,2                            | 96,1                                                   |
| 5.  | 2021   | 69057                                                                    | 11305,2                                               | 9929,8                            | 87,8                                                   |
| 6.  | 2022   | 242772                                                                   | 14506,7                                               | 11620,3                           | 80,10                                                  |
| 7.  | 2023   | 217610                                                                   | 14519,1                                               | 13032,1                           | 89,8                                                   |
| 8.  | 2024   | 310474                                                                   | 4441,3                                                | 4235,0                            | 95                                                     |
|     | Jami   | 1394201                                                                  | 56968,4                                               | 50514,0                           | 91,7                                                   |

**Manba:** O’zbekiston Respublikasi Soliq qo’mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

«O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi 1-son qarori 2-ilovasi bilan tasdiqlangan "Solliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom"ning 5-bobida sayyor solliq tekshiruvini tashkil etish va o'tkazish tartibi belgilangan. Nizomning 63-bandida solliq to'lovchilar tomonidan savdo va xizmat ko'rsatish qoidalariga rioya etilishi, shu jumladan, ular tomonidan nazorat-kassa texnikasi va hisob-kitob terminallari qo'llanilishi bo'yicha sayyor solliq tekshiruvlarini tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi solliq qo'mitasining "Solliq hamkor" avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali amalga oshirilishi belgilangan.

Shuningdek, fuqarolardan tushgan murojaatlar va o'tkazilgan solliq tekshiruvlari to'g'risidagi ma'lumotlar Solliq qo'mitasining axborotlarni qayta ishlash markazi tizimida joylashtirilishi ko'rsatilgan. "Solliq hamkor" avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali solliq to'lovchilardan savdo va xizmat ko'rsatish qoidalarini buzilishi bo'yicha kelib tushgan murojaatlarning ko'rib chiqilishi axborot tizimi ma'lumotlar bazasi asosida tahlil qilinadi.

Sayyor solliq tekshiruvlariga to'xtaladigan bo'lsak "Solliq hamkor" tizimi orqali 2023-yilda 54 031 ta tekshirishlar o'tkazilib, quyidagi solliq huquqbuzarlik holatlari aniqlangan:

- xarid uchun chek bermaslik - 46 981 ta;
- tulov terminalidan foydalanmaslik - 219 ta;
- kameral tekshiruvlar doirasida - 464 ta;
- xavflarni taxdil qilish natijalari buyicha - 567 ta.

"Solliq" mobil ilovasi orqali solliq huquqbuzarliklari haqida xabar berishni rag'batlantirish instituti doirasida 2023-yilda 21,4 ming nafar fuqarodan 122,1 ming ta murojaat kelib tushgan bo'lib (shundan, 68,3 ming ta murojaat takroriy yoki tekshiruv davomida kelib tushgan)<sup>1</sup>.

Solliq kodeksining 138-moddasida "Kameral solliq tekshiruvi" tushunchasining iqtisodiy mohiyati ochib berilgan. Unga asosan kameral solliq tekshiruvi solliq to'lovchi (solliq agenti) tomonidan taqdim etilgan solliq hisobotini, moliyaviy hisobotni, shuningdek solliq to'lovchining faoliyati to'g'risida solliq organida mavjud bo'lgan boshqa hujjatlar hamda ma'lumotlarni tahlil qilish asosida solliq organi tomonidan o'tkaziladi (Kodeks, 2025).

Kameral solliq tekshiruvi solliq organi rahbarining buyrug'i asosida o'tkaziladi. Agar o'tkazilgan kameral solliq tekshiruvi yakuni bilan taqdim etilgan solliq hisobotida tafovutlar va (yoki) xatolar aniqlansa, solliq organi solliq to'lovchiga ushbu Kodeksda belgilangan tartibda solliq hisobotlariga tuzatishlar kiritish talabnomasini yuboradi.

Solliq hisobotiga tuzatishlar kiritish haqida talabnoma yuborilgan sana kameral solliq tekshiruvi tugatilgan sana hisoblanadi. Agar o'rganish va tahlil qilish yakunlariga ko'ra tafovutlar va (yoki) xatolar aniqlanmagan bo'lsa ham kameral solliq tekshiruvi yakunlangan hisoblanadi.

Solliq organlari kameral solliq tekshiruvi o'tkazilishi boshlanguniga qadar tekshiruvdan oldingi tahlilni o'tkaziladi. Tekshiruvdan oldingi tahlil solliq organi rahbarining (rahbar o'rinbosarining) buyrug'isiz amalga oshiriladi.

Tahlil chog'ida tafovutlar va (yoki) xatolar aniqlansa, solliq to'lovchiga uning shaxsiy kabineti orqali solliq hisobotiga tegishli tuzatishlar kiritish to'g'risidagi xabarnoma yuboriladi. Solliq to'lovchi tegishli tuzatishlar kiritish to'g'risidagi xabarnoma olingan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda aniqlashtirilgan solliq hisobotini yoki aniqlangan tafovutlarning asosnomasini taqdim etishi shart. Bunday majburiyatning bajarilmaganligi solliq organi tomonidan solliq to'lovchida kameral solliq tekshiruvini tayinlash uchun asos bo'ladi. Tekshiruvdan oldingi tahlil aniqlashtirilgan solliq hisoboti yoki aniqlangan tafovutlar asosnomasi solliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan yoxud kameral solliq tekshiruvi tayinlagan sanadan e'tiboran yakunlangan hisoblanadi.

<sup>1</sup> Solliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Bu ko'rsatkichlar davlat soliq xizmati organlari tomonidan o'tkazilayotgan soliq nazorati tadbirlarining sifat darajasi o'sib borayotganidan dalolat beradi. Ammo tahlillar natijalarini solishtirishdan kameral soliq tekshiruvlari soni yildan-yilga kamayib borgan bir sharoitda qo'shimcha hisoblanayotgan soliqlar miqdori keskin o'sayotganligini kuzatish mumkin. Ushbu holat soliq nazorati va uning oqibatlari profilaktikasi samarasiz degan xulosa qilishga asos bo'ladi. Chunki oqilona davlat byudjet-soliq siyosatining maqsadida soliq to'lovchilar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklar soni o'sishidan manfaatni kutilmaydi. Shu sababli profilaktika ishlariga ko'proq e'tibor qaratiladi.

Yuqorida qayd etilgan ustuvor vazifalarini amaliyotga tadbiq etish o'z navbatida soliq xizmati organlarida qo'llanilayotgan axborot-kommunikatsiya tarmoqlarini takomillashtirishni talab etadi. Jumladan, mamlakatimiz soliq tizimida soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslarning yagona reyestrini yuritishni takomillashtirish uchun soliq to'lovchilarni hisobga olish sifatini oshirish, shu jumladan soliq to'lovchi to'g'risidagi uning soliq majburiyatlari hajmiga va ularni bajarish shartlariga ta'sir etuvchi ma'lumotlarning o'z vaqtida va to'liq aktuallashtirishini ta'minlash lozim bo'ladi.

O'z navbatida, soliq to'lovchilarni hisobga olish axborot tizimining mavjud ayrim kamchiliklarini bartaraf etishda quyidagilarga e'tibor berish talab qiladi:

- subyektning soliq to'lovchi sifatida maqomidagi o'zgarishlarni hisobga olishning aniqligi va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash;
- soliq majburiyatlari hajmi va ularni to'lash muddatlarini aniqlashda potensial bo'lgan noaniqliklarni qisqartirish;
- kontragentlarni tanlashda xo'jalik yurituvchi subektlarning tavakkalchiliklarini kamaytirish;
- kontragentlarning insofsizligi natijasida xarajatlar va zararlarning oldini olish tufayli mahalliy iqtisodiy operatorlarning raqobatbardoshligini va shunga mos ravishda butun O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish;
- soliq ma'muriyatchiligining joriy xarajatlarini qisqartirish, shu jumladan soliq organlarining soliq to'lovchilarni hisobga olish bilan bog'liq mehnat xarajatlarini kamaytirish;
- soliq ma'muriyatchiligining yuqoridagi tartibga solish tartib-tamoyilariga va ularni amalga oshirish muddatlariga kafolatli rioya etish;
- soliq to'lovchining faoliyati ustidan tegishli nazoratni ta'minlash, shu jumladan soliq to'lashdan bo'yin tovlash belgilarini o'z vaqtida aniqlash imkonini beruvchi ma'lumotlarni shakllantirish va aktuallashtirish orqali takkomillashtirish mumkin.

Soliq hisobotini qabul qilish va qayta ishlashda yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslar tomonidan soliq va buxgalteriya hisobot hujjatlarini tayyorlash jarayonini avtomatlashtirish uchun dasturiy komponentlarini yaratish rivojlantirishda yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslarning soliq va buxgalteriya hisobotlarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan ma'muriy yukini kamaytirish lozim. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatuvchi elektron hujjat operatorlarining raqobatbardoshligini oshirish orqali ham hisobotlarni shakllantirish uchun xarajatlarini kamaytirish mumkin.

### **Xulosa va takliflar.**

O'zbekistonda raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali soliq nazoratini takomillashtirish bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi.

1. Yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish, tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun, shu jumladan tartibga solish va ma'muriy yukni kamaytirish hisobiga teng raqobat sharoitlarini yaratish, soliq qonunchiligi talablariga rioya qilish tartib-taomillarini avtomatlashtirish va uning tartibini soddalashtirish zarur sababi mamlakatimiz iqtisodiyotda yashirin aylanma darajasini qisqartirish va qonuniy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish imkon beradi.

2. Soliq organlariga ortiqcha to'langan soliq summasi soliq to'lovchiga uning yozma arizasiga ko'ra, bunday ariza soliq organi tomonidan olingan kundan e'tiboran o'n besh kun ichida, tadbirkorlik subyektlarining yuqori barqarorlik reytingiga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlariga esa uch kun ichida qaytarilishi lozim.

3. O'n sakkiz yoshga to'lgan va o'ttiz yoshdan oshmagan ijtimoiy soliq to'lagan o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslarga onlayn shaklda xizmat ko'rsatish hamda raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

4. Tadbirkorlarning barqarorlik reytingi joriy qilinganidan kelib chiqib, Soliq qo'mitasining "Tadbirkorlarning barqarorlik reytingi" elektron platformasida shakllanadigan reytingi yuqori tadbirkorlar uchun imtiyozli soliq kreditlari ajratilishini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

### **Adabiyotlar /Литература/Reference:**

Alan Grinspen (2010). *Epoxa potryaseniye. Problemy i perspektivy mirovoy finansovoy sistemy*. -M.: Yunayted Press, - st. 550.

Aplin P. (2016) *Digitalisation of tax International perspectives*, <https://www.icaew.com/-/media/corporate/files/technical/digital-ax.ashx?la=en> [Kiritilgan cana: 2016-yil 12-noyabr].

Farmon (2018) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29-iyun 2018-yildagi "O'zbekiston Respublikasining Soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-sonli Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2018-yil 2-iyul, 26-son, 509-modda.*

Giyasov S.A. (2020) *O'zbekiston elektron soliq xizmatilaridagi o'zgarishlar va ularni joriy etish masalalari. "Raqamli iqtisodiyot: zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy masofaviy konferensiyaning maqolalar to'plami. Toshkent. TDIU. Tadqiqot.uz.*

Kodeks (2025) *O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 138-moddalari.*

Kodeks (2025) *O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 136 modda.*

Kofler L.I., Kashirina Yu.P. (2017). *Nalogovye proverki: vidy, poryadok provedeniya i oformleniya rezultatov. Territoriya nauki. № 1.*

Mirziyoyev Sh.M. (2023) *Tadbirkorlik rivojini yanada yuksak bosqichga ko'tarish – ustuvor vazifamizdir. Mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan uchrashuvdagi nutqi.18-avgust. .*

Sadchikov Mixail Nikolayevich (2010). *Kameralnye i vyezdnye nalogovye proverki kak formy nalogovogo kontrolya. Avtoreferat dissertatsii na soiskaniye uchenoy stepeni kandidata yuridicheskix nauk. Saratov.*